ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Resume. Artistic skill is the effective, beautiful, and understandable depiction of ideas, events, and images through words in the works of writers or poets. This article analyzes the artistic mastery of the fabulist poet Muhammad Sharif Gulhani.

Резюме. Художественное мастерство - это эффективное, красивое и понятное изображение идей, событий и образов посредством слов в произведениях писателей или поэтов. В данной статье анализируется художественное мастерство поэта-баснописца Мухаммада Шарифа Гульхани.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ZAMON VA SHAXS RUHIYATINING OBRAZLAR ORQALI AKSLANISHI

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Umaraliyevanafisa38@gmail.com *+998999260198*

Siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar XX asr ijodkorlarida yangi ong va tafakkurni uyg'otdi. Ular odam bilan bog'liq nozik masalalarga e'tibor qaratdilar va shu paytgacha hukmronlik qilayotgan akademizmlardan, madaniy qoliplardan uzoqlashdilar, adabiyot erkinlashdi. Ko'plab mualliflar uchun qofiya va metrikalar o'tib ketdi, mavzu va shakllarning go'zalligidan ustun keldi. Jahon zamonaviy san'ati keng rivojlanib bormoqda u o'zigacha bo'lgan ijodiy oqimlar inkori bilan birga san'at va adabiyotga yangilik taqdim eta oldi.

Bu oqim vakillari dunyoni aqlga tayanmagan holda, "hissiy tafakkur" yordamida anglash mumkin deb biladilar. Rauf Parfi ham shu oqim yangiliklari va izlanishlarining vakili edi.

Qora osmon,
Qayg'uli osmon
Qovog'idan qor yog'adi.
Jim.
Uningsiz ham shodligim yolg'on
Uningsiz ham yo'qdir shodligim,[1]

Shoirnig yuqoridagi she'ri oq she'r shaklida yozilib qofiyalanish tartibi tizimli emas, biroq zamon va shaxs ruhiyatini ko'rsatib berish uchun ayni shu tizimli she'r zamon ruhi tasviriga mos tushgan. She'rga "Shodlik" deb nom bergan ijodkor qora osmon tasviri bilan boshladi misralarni, qayg'uli, qovog'idan qor yog'moqda biroq jim. Shodligi esa yolg'on, misralar davom etar ekan lirik qahramon go'yo mashuqaga murojaat etadi va yana davr tasviriga chog'lanib:

Mas'um bu kech.
Mash'um bu kech.
Qassob bu kun.
Qasos bu kun.[2]

deya, davr chizgilarini yaratadi. Rauf Parfi tabiatan kamsuqum, zohidona ijodkor bo'lgani holda, zamona zaylini teran anglagan xalqining taqdiriga befarq bo'lmagan, ko'zi bilan ko'rib turgan voqealarni she'rlarida akslantirishga harakat qilgan. Uning xalqi mas'um edi, mas'umlarning qoshida mash'um voqealar sodir bo'lmoqda, mas'umlarning boshida qassoblar hukm qilmoqda, sodda, dilgir mas'um xalq tasvir etilgan

Eshityapsanmi yig'i tovushin?
So'yilgan ozodlik xirillar.[3]

Ijodkor kitobxonga aytmoqchi bo'lgan asosiy g'oya tasvir etilgan. So'yilgan ozodlik tushunchasi mustabidlik, qaramlik, zamona zayli bu tushunchalar ijodkorni ilhomlantirgan va mustaqillik g'oyalari sari chorlagan. Shoir yuqoridagi o'rinda ozodlik va shodlik tushunchalarini sinonim tarzda qo'llaydi. She'r davom etarkan unda bir yigit obrazi gavdalantirilib, u ozodlik, shodlik tushunchalaridan bebaxra–yu bex-

[1] R. Parfi. Saylanma. – Toshkent: Muharrir, 2022. – B. 78.
[2] R. Parfi. Saylanma. – Toshkent: Muharrir, 2022. – B. 80.
[3] Yuqoridagi manba.

abar dunyodan ketgani tilga olinadi. Yozuvchi Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida mustabid tuzum davridagi ozodlikdan bebaxra uch avlod tasviri berilgandi ana o‘sha uch avlod vakillari Rauf Parfining misraliridagi “sening borligingdan bexabar ketdi bir yigit” – deya tasvirlangan obraz orqali ham bo‘y ko‘rsatadi. Mustaqillik uchun kurasha olmagan, hatto u haqida o‘ylab ham ko‘rmagan oddiy xalqni gavdalantirishga hizmat qilmoqda. Bir yigit obrazining tasviri keyingi misralarda davom etadi:

Butundir oyog‘i
To‘rvasida ishsizlikning yorlig‘i.
Qornida
O‘tgan kungi yog‘siz yovg‘onning baxtiyorligi.[1]

Yuqoridagi misralar realistik va ijtimoiy-satirik uslubda yozilgan. Shoir badiiy ifoda vositalari orqali jamiyatdagi kambag‘allik, ishsizlik va inson qashshoqligining ma’naviy og‘rig‘ini ironik tarzda ko‘rsatgan. Minimalizm – oz so‘z bilan katta ma’noni ifodalash, uch satr, ammo butun ijtimoiy qatlam ko‘rsatilgan va qator poetik uslubiy o‘ziga xosliklardan foydalangan xususan, ironiya – “*baxtiyorligi*” so‘zi istehzoli ohangda ishlatilgan. Aslida bu “*baxt*” emas, kulfat. Kontrast (tazod) – “butundir oyog‘i”, tashqi sog‘lomlik – “ishsizlikning yorlig‘i”, ichki muammoli hayot. Metonimiya va ramz – “to‘rva” (xaltacha) – kambag‘allik timsoli, “yorliq” – ishsizlikning muhridir. Ko‘rinadiki, uslub ijtimoiy-psixologik realizm bilan satirik ifodaning qorishmasidir.

Ijodkor obrazlar orqali ham zamon va shaxs ruhiyatini ko‘rsatib beradi. “butundir oyog‘i” – bu tashqi ko‘rinishda sog‘lom, ammo ruhiy va ijtimoiy jihatdan ezilgan odam obrazidir. Uning oyog‘i butun, lekin hayoti yarim, “to‘rvasida ishsizlik yorlig‘i” – bu uning jamiyatdagi maqomi yo‘qligini ko‘rsatadi. To‘rva obrazi – oddiy mehnatkash kishining hayotiy atributi, dunyo, zamon yukining ramzi, shoir inson taqdirini shu ramzga joylashtirgan. “Yog‘siz yovg‘on” – oddiy xalq noni, ammo “baxtiyorlik” so‘zi bilan birga kelishi orqali achchiq istehzo yaratilgan.

She’r ijtimoiy og‘riqni badiiy shaklda ifodalab, real hayotning achchiq haqiqatini ironik tonda ochib beradi. Oddiy xalq hayoti orqali keng ijtimoiy ma’noni mujassamlashtiradi.

Adabiyotshunos D. Quronov takidlaganidek badiiy adabiyot ikkiyoqlama mohiyatga ega, bir tomondan san’at hodisasi, ikkinchi tomondan ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

Ijodiy jarayon mahsuli bo‘lgan birliklar avvalo ruhiy faoliyat mahsulidir. Ruhiy faoliyat ham o‘z o‘rnida ikkiga bo‘linadi “aqliy” va “hissiy”, falsafiy nuqtai nazardan bu bilish jarayonidir. Bu birliklar qushning ikki qanoti, zero ijodkor ijtimoiy reallikni dastlab “aqliy” bila olishi so‘ngra, “hissiy” bilish birligiga aylantirmog‘i darkor. Ijtimoiy reallik hissiy bilish birligiga aylangach u san’at asari, badiiy mazmun mundarijasiga ega bo‘lgan asarga aylanadi. Rauf Parfi ijtimoiy dard bilan yashagan va shu dard bilan yashnagan ijodkordir. Lirikada qalam tebratgan ijod ahli avvalo o‘z “men”i ya’ni shoir shaxsi hamda ijtimoiylikni singdira olmog‘i darkor. O‘tgan asrning 30-60 yillarida sotsial realizm oqimi adabiyotda kuchaytirildi biroq, shoir shaxsiyati asarga singdirilishiga yo‘l qo‘yilmadi. Shoir mustabid tuzum davrdagi ijtimoiy vaziyatni o‘zining ilmiy farazlarini maqolalarga ham jamlagan “Zulm va she’riyat”, “Davr bilan hamnafas so‘zlar”, “Mantiqdan yiroq”, “Keyin keyinimiz”, “She’riyat huquqi” va boshqa qator maqolalari va intervyularida ijodkor ayni davr ijodiy jarayoni hamda ijtimoiy muhit haqida so‘z yuritadi.

– Bir she’rimning, qarang, boshi yo‘q,
Kesilgan-ku, qarang, oyog‘i?!
Muharrirga boqdim, ko‘zim lo‘q:
– Axir qandoq bo‘lur bu yog‘i?!
Tilingni tiy,- dedi muharrir,
Yaxshilikni bilmagan hamak.
– Kechiringiz lekin ko‘p og‘ir
Yolg‘iz qorin bilan yashamak.[2]

XX asr adabiyoti, aynan 30-60 yillar oralig‘ida yaratilgan so‘z san’atidagi merosimiz aynan yuqoridagi misralarda yoritilgan tartibda asar bitishni talab qilgan. Ma’lum bir adabiy qoliblar, davlat siyosatiga maqtov hamda shaxslarga sig‘inish talab etilgan. Rauf Parfi yuqoridagi misralarni 1976-yilda bitgan biroq bu davr ham ijod ahliga yetarlicha adabiy cheklovlar bor edi. She’rning mazmuniy markazi uning ohirgi misrasida ochib berilgan “yolg‘iz qorin bilan yashash ko‘p og‘ir”– shoir tabiatan haq gapni aytishga tashna bo‘lganligi bois ham yuqori martabaga erishmadi, kamtar hayot kechirdi. U ko‘rib turgan haqiqatlariga ko‘z yumib ijod qilganda “qorin g‘ami bilan” yashagan bo‘lar edi. Shoir ijtimoiylikdan hech bir uzulib qololgan kimsa emas, hech bir so‘zini davr tizginidan ajratmagan, uni hayratga solgan narsa zamon siyosati emas shu siyosatni ko‘r-ko‘rona qo‘llayotgan kimsalar edi. Ularga shoir doim murojaat qilgan ikki misradan iborat she’rlari yoki yengil yumorlari bilan zamona shaxsining sifatlari ustidan kulgan.

“Davrning ilg‘or ijtimoiy maqsadini o‘zining estetik idealiga singdirgan san’atkor voqelikni o‘sha ideal nuqtayi nazardan baholaydi. .. chinakam san’atkor nima haqida yozishidan qat’i nazar, – u ma’naviy muammolarni badiiy taqiq etadimi, o‘z qalbiga nigoh tashlaydimi,... – o‘z badiiy tasvir va tadqiq pred-

[1] R. Parfi. Saylanma. – Toshkent: Muharrir, 2022. – B. 82.
[2] R. Parfi. Saylanma. – Toshkent: Muharrir, 2022. – B. 111.

meti sifatida olgan narsani umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazardan yoritadi.” – deb ta’kidlaydi Dilmurod Quronov.

Adabiyot bilan zamon va makon ham shartli, ham uzviy bog‘liqlikka ega. Adabiyot boshqa san’at turlariga qaraganda zamon, davr muhiti va makon jihatidan eng qulay tasvirlovchi hisoblanadi. “Tasvirlarning nomoddiyligi adabiyotda bir vaqtning o‘zida bir zamondan ikkinchisiga o‘tish imkonini beradi. Boshqa adabiyot turlari kabi lirika ham real hayotning aksi o‘laroq shakllanadi.”[6, 70]

She’riyatga dahli bor har qanday kishi o‘z zamonasidan ilhom, badiiy ozuqa olib ijod na’munalarini yaratadi. Rauf Parfining “Tong otmoqda...” she’ri shunday haqiqatni ko‘rsatuvchi o‘ziga xos poetik chizigilar bilan tasvirlanadi.

Tong otmoqda, tong o‘qlar otar,
Tong otmoqda, quyosh zambarak.
Yaralangan yer shari yotar,
Boshlarida yashil chambarak.[1]

Tong otishi, kunning boshlanishini har bir ijodkor o‘ziga xos poetik chizgilar bilan tasvirlaydi. Biroq Rauf Parfi Raufona metaforik o‘xshatishdan foydalanib, quyoshni to‘g‘ridan-to‘g‘ri zambarakka mengzaydi. Qorong‘u tunga qarata o‘q otayotgan zambarak – beqiyos simvolli chizgilar bilan tasvir etiladi. Yaralanganda boshiga yashil chambarak o‘ralgan zamin – istibdod davrida millat va vataniga kelgan adoqsiz jarohatni shoir o‘quvchi qalbiga hayrat soladigan obrazli tasvirlaydi. Mumtoz adabiyotimizga xos tashxis: tongni o‘qlar otayotganga, sifatlash: yerni sharini yaralanganga, tashbeh: quyoshni zambarakka mengzash singari badiiy san’atlarni qo‘llash orqali lirik tasvir mukammalligi tamin etilgan.

Tong otmoqda, musaffo tongga
Yuragini tutar odamlar.
Shu tong uchun kelar jahonga
Va shu tong deb o‘tar odamlar.
Tong otmoqda..[2]

Mustaqillik tongi shoir uchun uzoq vaqt kutilgan musaffo tong edi. Erksiz kechgan umrni lirik qahramon zulmatga mengzaydi. Lekin shoir lirik matn davomida ozodlik, mustaqillik, istiqlol so‘zlarini qo‘llamaydi, ammo she’r davomiyligidan anglab olishi mumkin. Rauf Parfining ijodiy mahorati ham aynan shunda, muayyan tushunchani qo‘llamay turib, u haqda to‘liq bayonot bera oladi. Shoir doim xalq, vatan dardi ila yashadi. Ijodi davomida vatanni ko‘klarga ko‘tarib maqtamadi, biroq uning tuyg‘usi qo‘shilmagan biron misra yaratmadi.

Rezyume. Ushbu maqolada Rauf Parfi ijodida zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali ifodalanish masalasi tahlil qilinadi. Shoir lirikasida inson ruhiyati, zamon talotumlari va milliy o‘zlikning poetik in’ikosi o‘ziga xos badiiy vositalar bilan yoritilgan. Rauf Parfi asarlarida shaxsning ichki iztiroblari, ruhiy ziddiyatlari, ozodlikka intilishi hamda zamon ruhi bilan uyg‘un holda tasvirlangan obrazlar tizimi ilmiy-nazariy asosda o‘rganiladi. Shoir ijodining asosiy g‘oyaviy yo‘nalishi – inson ruhining zamon bilan bahsi, tafakkurning ozodlikka intilishi hamda milliy ruhning badiiy akslanish jarayoni ilmiy asosda yoritilgan.

Резюме. В данной статье рассматривается проблема отражения времени и духовного мира личности через систему образов в творчестве Рауфа Парфи. В лирике поэта духовность человека, бурные события эпохи и поэтическое воплощение natsiональной самобытности освещаются посредством своеобразных художественных средств. Основное идейное направление творчества поэта определяется как диалог человеческой души со временем, устремлённость мысли к свободе и художественное воплощение natsiонального духа.

Resume. This article analyzes the issue of reflecting time and the human psyche through imagery in the works of Rauf Parfi. The poet’s lyrics depict the spiritual world of man, the turbulence of the era, and the poetic expression of national identity through unique artistic means. The main ideological direction of Rauf Parfi’s creativity is revealed as the dialogue between the human soul and time, the aspiration of thought toward freedom, and the artistic embodiment of the national spirit.

[1] R. Parfi. Turkiston ruhi. – Toshkent: Sharq, 2013. – B. 251.
[2] R. Parfi. Saylanma. – Toshkent: Muharrir, 2022. – B. 267.